

DOI: 10.5281/zenodo.15659382

Link: <https://zenodo.org/records/15659382>

RESPUBLIKAMIZDA TRANSPORT XIZMATI KO'RSATISHNING SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA UNING TAHLILI

Muxtorova Indirabonu Yasharbek qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Biznes boshqaruvi" kafedrası
indiramuxtorova@gmail.com

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida transport xizmati ko'rsatish sohasining hozirgi holati tahlil qilinadi. Transport infratuzilmasining rivojlanishi, mavjud imkoniyatlar va muammolar, jumladan, yo'llarning sifati, logistika markazlarining yetishmasligi va malakali kadrlar tanqisligi yoritilgan. Statistik ma'lumotlar asosida transport xizmatlari hajmidagi o'sish, yo'lovchi va yuk tashish dinamikasi hamda xalqaro yuk aylanmasi ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, transport xizmatlarini raqamlashtirish, avtomatlashtirish va turizm sohasidagi bog'liqligi bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Transport xizmatlari, infratuzilma, logistika, yo'lovchi tashish, yuk tashish, raqamlashtirish, iqtisodiy rivojlanish, transport statistikasi, xalqaro hamkorlik, LPI indeksi.*

Kirish. Transport sohasi har qanday davlat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat milliy darajada yuk va yo'lovchi tashishni tashkil etish, balki xalqaro savdo va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston transport sohasi o'zining strategik geografik joylashuvi tufayli katta salohiyatga ega. Mamlakatda bu sohada so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, lekin hali ham rivojlanish uchun imkoniyatlar va kamchiliklar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi transport sohasining bir qadar ijobiy jihatlari bor. Jumladan, Strategik Geografik Joylashuv - O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, xalqaro transport yo'laklari uchun qulay imkoniyatlarni taqdim etadi. Davlatimiz tomonidan so'nggi yillarda transport infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, zamonaviy loyihalar amalga oshirilmoqda. Raqamlashtirish borosida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi, elektron chiptalar tizimi va logistika xizmatlarining raqamlashtirilishi transport xizmatlarining samaradorligini oshirmoqda.

Transport sohasidagi ijobiy jihatlارimiz bilan bir qatorda kamchiliklarimiz ham mavjud. Masalan, yo'l sifati qishloq joylarda yo'llarning holati qoniqarli emas, bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashishda qiyinchilik tug'dirmoqda. Logistika tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi, zamonaviy omborxonа va logistika markazlarining yetishmasligi yuk tashish samaradorligini pasaytiradi. Transport sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi ham kuzatilmoqda. Havo transporti sohasida ichki va xalqaro aviqatnovlar narxlarining nisbatan yuqoriligi xizmatlardan foydalanish darajasini cheklamoqda. 2023-yil yanvar oyida O'zbekiston avtomobil transporti sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 217,1 milliard so'mni tashkil etdi.

Quyidagi jadval so'nggi yillardagi transport sohasi holatini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan:

1-jadval

Transport va aloqaning asosiy ko'rsatkichlari⁸
(amaldagi narxlarda, mlrd. so'm)

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023
Tashish va saqlash, axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turlarining yalpi qo'shilgan qiymati	41,198.3	52,065.7	65,011.0	84,103.9
Asosiy fondlar (yil boshiga; boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati):				
- Tashish va saqlash	86,987.2	93,984.5	109,291.1	115,292.1
- Axborot va aloqa	19,693.3	21,076.5	24,399.4	25,266.4
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar				
- Tashish va saqlash	14,132.7	16,013.1	20,598.6	25,298.8
- Axborot va aloqa	8,984.2	9,019.4	6,867.8	8,752.4
Xizmatlar hajmi				
- Transport	53,662.9	67,238.6	83,985.6	108,090.2
- Aloqa va axborotlashtirish	13,852.3	17,755.1	24,508.1	35,261.9
Korxonalar va tashkilotlar xodimlarining o'rtacha yillik soni, ming kishi:				
- Tashish va saqlash	210.2	194.8	199.1	190.0
- Aloqa	29.6	30.4	30.0	31.5

Yalpi qo'shilgan qiymat: 2020 yildan 2023 yilgacha tashish va saqlash, axborot va aloqa sohasida yalpi qo'shilgan qiymatning ortishi sezilarli. 2020 yildagi 41,198.3 million so'mdan 2023 yilda 84,103.9 million so'mgacha o'sdi. Tashish va saqlash sohasida asosiy fondlar ko'paymoqda, bu investitsiyalarni va infratuzilma o'sishini ko'rsatadi. Axborot va aloqa sohasida ham fondlar o'sishi kuzatilmoqda, lekin unchalik tez emas.

Tashish va saqlash sohasiga kiritilgan investitsiyalar har yilda ko'payib bormoqda, bu sohaning rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Axborot va aloqa sohasida 2022 yildan 2023 yilgacha investitsiyalarning pasayishi ko'zga tashlanadi. Transport xizmatlari hajmi va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 2020 yildan 2023 yilgacha har ikkalasi ham ortdi, bu sohalarning ahamiyati oshayotganini ko'rsatadi. Tashish va saqlash sohasidagi o'rta yillik xodimlar soni 2020 yilda eng yuqori bo'lsa-da, 2021 yilda nisbatan pasaydi va 2023 yilda yana pastroq ko'rsatkichga ega bo'ldi. Aloqa sohasidagi xodimlar soni esa yildan-yilga ortib bormoqda.

⁸ Stat.uz saytining hisobotlari asosida maullif tomonidan ishlab chiqildi

2-jadval

Qatnov turlari bo'yicha umumfoydalanadigan transportning yo'lovchi aylanmasi (%da)⁹

Yo'nalish	2020 (%)	2021 (%)	2022 (%)	2023 (%)
Xalqaro yo'nalish	100,0	100,0	100,0	100,0
- Temir yo'l	5,0	0,4	0,9	1,2
- Avtomobil	-	-	14,9	12,5
- Havo yo'l	95,0	99,6	84,2	86,3
Shaharlararo yo'nalish	100,0	100,0	100,0	100,0
- Temir yo'l	80,5	67,7	54,8	57,1
- Avtomobil	12,4	24,9	35,9	34,6
- Havo yo'l	7,1	7,4	9,3	8,3
Shahar atrofi yo'nalishi	100,0	100,0	100,0	100,0
- Temir yo'l	42,0	39,4	5,7	4,8
- Avtomobil	58,0	60,6	94,3	95,2
Shahar ichi yo'nalishi	100,0	100,0	100,0	100,0
- Avtomobil	87,1	67,3	84,6	83,0
- Tramvay	0,2	0,3	0,1	0,2
- Trolleybus	0,4	0,6	0,2	0,2
- Metropolitan	12,3	31,8	15,1	16,6

Yuqoridagi jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi xulosalarga kelamiz. Xalqaro yo'nalishda havo yo'li orqali yo'lovchilarning ulushi yuqori bo'lib, 2020 yildan 2023 yilgacha sezilarli o'zgarishlar mavjud. Temir yo'lining ulushi esa kamayib bormoqda. Shaharlararo yo'nalishlarda temir yo'l yo'nalishining ulushi pastlashdi, avtotransportning ulushi esa ortib bormoqda, bu yo'nalishda avtomobil transportiga qiziqish oshayotganini ko'rsatadi. Shahar atrofi yo'nalishida esa avtomobillar, asosan, shahar atrofi transportida asosiy rolni o'ynaydi, bu esa shaharlararo va shahar ichidagi transport tizimlarining o'zaro aloqasini ifodalaydi. Shahar ichi yo'nalishida avtomobil transportining ulushi yuqori, lekin tramvay va trolleybus xizmatlari jismoniy jihatdan cheklangan ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston transport xizmatlari sohasida 2022-yilga nisbatan kuzatilayotgan o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutmoqda. 2023-yilda transport xizmatlari ko'rsatish hajmi 108 trln 477 mlrd so'mga yetdi, bu esa o'zgarishlarni 108% ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlar transport sohasining rivojlanayotganligini tasdiqlaydi. 2023-yilda O'zbekistonda jamlama ishlab chiqarish bilan 1 mlrd 383 mln tonna yuk tashildi, bu esa 2022-yilga nisbatan 102% o'sishni anglatadi. Temir yo'l orqali 73,8 ming tonna yuk (101%), avtotransport orqali esa 1 309 ming tonna (102%) yuk tashildi. Shuningdek, ularning yuk aylanmasi 48 mlrd 818 mln tonna-kmni tashkil etdi va bu ko'rsatkich ham 106% o'sishni ko'rsatadi.

⁹ Stat.uz saytining hisobotlari asosida maullif tomonidan ishlab chiqildi

Yo'lovchilarni tashish borasida esa 6 mlrd 452 mln yo'lovchi (103,3%) tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar 2023-yilda o'sishda davom etmoqda. Temir yo'l tizimida 9 mln 707 ming yo'lovchi (107,7%), avia transportida esa 5 mln 267 ming yo'lovchi (129%) tashildi, bu esa avia va temir yo'l transportining o'sishiga yordam bermoqda. Transport xizmatlari eksporti ham sekin-sekin o'smoqda, 2023-yilda 1 mlrd 541,4 mln dollarni tashkil etdi, bu esa 2022-yilga nisbatan 105% o'sishni ko'rsatadi.

Logistika samaradorligi indeksi (LPI) bo'yicha O'zbekiston 160 ta mamlakat orasida 88-o'rinni egallab, 2,6 ball bilan muvaffaqiyatini tasdiqladi. 2018-yilda bu ko'rsatkich 2,58 ball edi, ya'ni mamlakat logistika tizimining samaradorligini oshirishda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'zbekiston transport sohasining 2023-yildagi statistik ma'lumotlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Har bir turdagi transport xizmatlarining o'sishi uchun kuchli xavfsizlik tizimlari va zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish davom etyapti. Kelgusida transport sohasida rivojlanish va takomillashtirish jarayonlari davom etish kutilmoqda, bu esa iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Havo, temir yo'l va avtomobil transportlarida ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Rezident aviakompaniyalar soni 15 taga yetkazildi hamda mazkur aviakompaniyalarning 12 tasi xususiy aviakompaniyalar hisoblanadi.

Eng katta yo'lovchi tashish hajmi Toshkent shahrida (250 mln yo'lovchi). Bu hudud aholining zichligi va transport tizimining rivojlanganligi bilan bog'liq. Samarqand va Farg'ona hududlari 180 mln va 160 mln yo'lovchi tashish bilan yuqori ko'rsatkichga ega. Bu hududlar turistik markaz bo'lib, aholining ko'p harakatlanishi bilan ajralib turadi. Buxoro va Xorazmda yo'lovchi tashish hajmi nisbatan kamroq (120 mln va 110 mln). Bu hududlarda transport tarmog'ining intensivligi pastroq.

Transport xizmatlari sohasi mamlakat YaIM tarkibida muhim o'rin egallaydi. Transport va aloqa xizmatlari umumiy iqtisodiy faoliyatning sezilarli qismini tashkil qiladi. So'nggi yillarda avtomobil yo'llarining uzunligi va sifati yaxshilanib, yo'lovchi hamda yuk tashish hajmi oshdi. Bunda yangi yo'llar qurilishi va mavjud yo'llarning ta'mirlanishi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yuk tashish xizmatlari ham sezilarli o'sishga ega bo'lib, transport korxonalari daromadlarining oshishiga olib keldi. Xususan, xalqaro yuk tashish tizimining modernizatsiyasi orqali O'zbekistonning tranzit salohiyati oshirilmoqda.

Transport xizmatlari sohasida hali ham muammolar mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

Yo'llarning eskirganligi va transport infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani – bu muammoni hal qilish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Shahar transportida tirbandlik – ayniqsa, Toshkent shahrida avtobus va metro tizimlarini yanada takomillashtirish zarur.

Yo'lovchi tashish xizmatlarining sifatini oshirish – xizmatlarning elektron tizimga o'tishi va onlayn chiptalar tizimi rivojlantirilishi bu muammoni hal qilishga yordam beradi.

O‘zbekiston transport xizmatlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali rivojlantirishni rejalashtirmoqda. Elektron to‘lov tizimlari, aqlli transport tizimlari, va logistika markazlarining barpo etilishi sohaning samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, turizm sektorining rivojlanishi transport xizmatlari talabini oshirishi kutilmoqda. Xususan, sayyohlar uchun maxsus transport yo‘nalishlari va aeroport xizmatlarini modernizatsiya qilish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa.

O‘zbekiston transport xizmati sohasi iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol o‘ynab, so‘nggi yillarda sezilarli rivojlanishlarga erishmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yo‘lovchi va yuk tashish hajmi ortib bormoqda, infratuzilma va xizmatlar sifati bosqichma-bosqich yaxshilanmoqda. Shu bilan birga, mavjud kamchiliklar – yo‘llarning sifatsizligi, logistika tizimining yetarli darajada rivojlanmagani, kadrlar tanqisligi va transport vositalari xizmatlarining yuqori narxi kabi muammolar hali ham dolzarflikicha qolmoqda. Kelgusida transport sohasining raqamlashtirilishi, zamonaviy logistika markazlari barpo etilishi va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish hamda xizmatlar samaradorligini oshirish mumkin. Soha rivoji nafaqat ichki iqtisodiyot, balki tashqi savdo, turizm va logistika zanjirlarining yaxlit rivojlanishida ham muhim omil bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-yanvardagi “Transport sohasini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–92-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Transport va aloqa xizmatlari bo‘yicha statistik to‘plamlar (2020–2023 yillar).
3. “O‘zbekiston transport tizimi: hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari” // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 2023-yil, №2.
4. World Bank. Logistics Performance Index (LPI) 2023 Report. <https://lpi.worldbank.org>
5. Abduraxmonov Q.X., Axmedova U.R. “Transport tizimi va logistika asoslari”. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021.
6. Jalilov B.X. “Transport infratuzilmasini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari”. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022.
7. Sharopov M.M. “O‘zbekiston transport xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari” // “Milliy taraqqiyot” ilmiy-amaliy jurnali, 2023-yil, №4.